

BOLALAR FOLKLYOR QO'SHIQLARINI O'RGANISHDA MILLIY MUSIQIY TA'LIMNING O'RNI VA AHAMIYATI

Ximoydinov. Uyg'un. SamDU magistranti

Maqolada umumta'lim maktablarining boshlang'ich sinflari musiqa darslarida bolalar folklyor qo'shiqlarini o'rganish bo'yicha fikr yuritilgan. Unda musiqiy ta'limning o'рни, ahamiyati yoritib berilgan.

Milliy g'oya va mafkura o'z mazmunida ma'naviy va madaniy me'rosimiz, milliy qadriyatlarimizni mujassam etadi. Madaniy va ma'naviy meros avlod-ajdodlarimiz tomonidan yaratilib bizgacha yetib kelgan bebaho xazinadir. Unda yosh avlod tarbiyasida foydalanish, shu orqali ularni ona vatanga, xalqimiz tarixi, tili, madaniyati, urf-odat va an'analariga muhabbat ruhida tarbiyalash ta'lim tizimi oldidagi o'z dolzarbligini yo'qotmaydigan vazifalardandir.

Prizedentimiz I. Karimov o'zining “ Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch” asarida xalqimiz madaniy merosida salmoqli mavqega ega bo'lgan musiqa san'ati, uning tarbiyaviy imkoniyatlari haqida shunday yozadi: “... birinchi navbatda milliy madaniyatimiz, xalq ma'naviy boyligining ildizlariga etibor berish zarur. Bu xazina asrlar davomida misqollab to'plangan. Tarixning ne-ne sinovlaridan o'tgan. Insonlarga og'ir damlarda madad bo'lgan. Bizning vazifamiz shu xazinani ko'z qorachig'idek asrash va yanada boyitishdan iboratdir. Xalqimiz hayotida musiqa azaldan beqiyos o'rin tutib kelgan”.¹

O'zbek xalq musiqa merosi xazinasida kattalar bilan kichik yoshdagi bolalar ma'naviy dunyosini o'zida uyg'unlashtirgan bollalar folklor musiqa asarlari, bolalar qo'shiqlari ham muhim o'rin tutadi. Bunday qo'shiqlar o'zida bolalar hayoti, ruhiyati, bolalarga xos turli o'yinlar, aytishuvlar, hayvonot va o'simliklar tabiat hodisalari bilan bog'liq holatlarni o'ziga xos ifoda etishi bilan ajralib turadi. Bolalar qo'shiqlari ham xalq musiqasining ommaviy turlari singari badiiy va

¹ I.A. Karimov “ Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch” Toshkent, ma'naviyat. 2008-yil. 14-bet.

g'oyaviy mazmunga ega bo'lib, matni sodda, nihoyatda ixcham, o'yin-raqs bop xarakterga egaligi bilan o'ziga xoslik kasb etadi.

Bunday qo'shiqlar bolalarning ruhiy, aqliy dunyoqarashiga mos soddaligi, ko'proq harakatli o'yinlar bilan ijro etilishi, kuylashga osonligi va bolalar diqqatini o'ziga tez jalp qilish xususiyati tufayli ulardan ta'lim-tarbiya tizimida keng foydalanish uchun qulaylik tug'diradi.

Shuning uchun ham umum ta'lim maktablarining boshlang'ich sinflaridan o'quvchilarda milliy musiqa namunalariga havas va ishtiyoq uyg'otish, xalq musiqasini o'rganishda ularning g'oyaviy-badiiy mazmunini anglash, idrok qilish va ularga tavsif bera olishga o'rgatish, shu asosda musiqaning jiddiy va murakkab turlariga ham ijobiy va ijodiy munosabatni shakllantirish bugungi kunda musiqa ta'limi va tarbiyasi uchun mas'ul tarbiyachi-pedagoglar oldidagi dolzarb vazifalardandir.

Umumta'lim maktablarining boshlang'ich sinflarida bolalar tafakkuriga xos, ko'proq o'yin bilan bog'liq folklor qo'shiqlar, kuy va yengil aytimlarni o'rgatish musiqa ta'limining milliy asosini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Demak, musiqa darslarida xalqimizning milliy musiqa merosi tarkibidagi bolalar folklor qo'shiqlaridan maqsadga muvofiq holda foydalanish, ularni ijro etish uslublarini e'tiborga olgan holda tadbiq etish har bir musiqa o'qituvchisidan o'ziga xos pedagogik yondoshuv, bilim va mahoratni talab qiladi. Shu bois biz ham musiqa darslarida bolalar folklor qo'shiqlarini o'rganishning ayrim jihatlariga ilmiy-ijodiy nuqtai-nazardan yondoshish va uning milliy musiqiy ta'lim samaradorligini ta'minlashdagi imkoniyatlariga to'xtalib o'tishga harakat qildik.

Umumta'lim maktablarining musiqa madaniyati darslarini kuzatish, ularda xalq musiqasi, xususan bolalar folklor namunalariga e'tiborni o'rganish davomida o'quy dasturlariga kiritilgan bolalar folklor qo'shiq aytimlarini tinglash, o'rganish, kuylash, ular haqida zarur bilim, tushinchalarni olib borish borasida jiddiy kamchiliklar mavjudligini ko'rsatdi.

Bu o`rinda birinchi galda xalq musiqa merosiga oid namunalarni, shu jumladan bolalar folklor qo`shiqlarini ta`lim-tarbiya jarayoniga tadiq etish bo`yicha zarur o`quv-uslubiy manbalarni yetishmasligini takidlash o`rinlidir.

Zamonaviy kompozitorlarning bolalarga atab yaratayotgan asarlari to`plamlari ehtiyojni qondiradigan darajada nashr qilinmoqda. Lekin, xalq musiqa folklori va ularni ta`lim jarayonida urganish uchun sinflar kesimida joylashgan to`plamlarni yaratilmaganligi, bu o`rinda musiqa o`qituvchilarining ham yetarlicha tashabbus ko`rsatmayotganliklari jiddiy muammolardandir. Bunday holat umumiy o`rta ta`lim maktablarida ko`plab musiqa o`qituvchilarining maktab musiqa fani bo`yicha o`quv dasturiga kiritilgan xalq kuylari, qo`shiqlari bilan bir qatorda bolalar folklor namunalari chetlab o`tishiga sabab bo`lmoqda. Bunday namunalar o`rganilayotgan holatlarda esa musiqa o`qituvchilarining aksariyati asarning qanday holatda, qanday o`yin-raqs harakatlari bilan ijro etilishi, eng muhimi uni o`rgatish uslublaridan bexabarligi darslarni badiiy-estetik saviyasiga putur yetkazayotganligini ham ta`kidlash o`rinlidir.

Maktab boshlang`ich sinf o`quvchilarini xalq musiqasi va shu o`rinda bolalar folklor namunalari bilan zarur ehtiyojni qondiradigan darajada tanishtirib borish eng birinchi navbatda musiqa o`qituvchilaridan o`z kasbiga fidoiyligini, xalq musiqa ijodiyotiga chuqur muhabbat va yuqori darajadagi kasbiy mahoratni talab qiladi. Dars jarayoniga bolalar folklor qo`shiqlarini samarali tadbiiq etish o`z o`rnida bir qator vazifalarni ijobiy hal etishni taqazo etishni ham ta`kidlash o`rinlidir.

1. Milliy musiqiy qadriyatlar, xalq musiqasining ommaviy janrlari tarkibidagi bolalar folklor qo`shiqlarini ta`lim-tarbiya jarayoniga keng tadbiiq etish, shu orqali o`sib kelayotgan yosh avlodni milliy qadriyatlarimizni teran his qiluvchi, xalq musiqasiga hurmat, uni sevish, qadrlash orqali ong, milliy nafosat ruhida tarbiyalash ishlarini eng avvalo pedagog kadrlarni tayyorlovchi pedagogika oliy o`quv yurtlarida yaxshi yo`lga qo`yish kerak.

2. Umumiy o`rta ta`lim maktablarida musiqa san`atining milliy va ommaviy turlari bo`yicha badiiy havaskorlik to`garaklarini tashkil etishga e`tiborni kuchaytirish lozim.

3. Xalq qo`shiqlari, bolalar folklor qo`shiqlari maqsadli ravishda o`yin-raqs, harakatlari va milliy cholg`ular jo`rligida, bolalar ijodiy jamoalari ijrosidagi video yozuvlarni chiqarish va barcha maktablarni taminlash;

4. “ Musiqiy ta`lim” yo`nalishi bo`yicha pedagog-kadrlar tayyorlaydigan o`rta maxsus va oiliy ta`lim tizimida xalq musiqasi, an`anaviy va folklor qo`shiqlari bo`yicha maxsus kurs, tanlov fanlari, qo`shimcha mutaxassislik fanlarini tashkil etish;

5. Xalq musiqa janrlari bo`yicha folklor ansambllari faoliyatiga va ularni ijodini targ`ib qilishga, jamoalarni respublika, viloyat va tumanlar miqyosidagi ko`rik-tanlovlarni o`tgazib turish.

Xullas, bolalar folklor qo`shiqlari orqali o`quvchi-yoshlarni musiqiy madaniyatini, ma`naviy va badiiy estetik tarbiyalashning pedagogik va metodik tizimini yaratish, bugungi kungacha to`plangan mavjud tajribalarni o`rganish, turli viloyatlarda faoliyat yuritayotgan folklor-etnografik ansambillar faoliyatini o`lrganish, ular repertuaridagi bolalar folkloriga tegishli namunalarni to`plash, umumlashtirish va ta`lim jarayoniga tadbqiq etish orqali musiqiy ta`limning milliy asoslarini mustahkamlashga erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. I. Qudratov, N. Tolliboyev. “ Boshlang`ich sinf musiqa darslarida o`zbek xalq qo`shiqlarini o`rganish”.- Toshkekt. Fan, 2007-yil.
2. H. Nurmatov. “ Musiqa va estitik madaniyat” -Toshkent, T.D.P.U. 1995-yil.
3. Akbarov I.A. “ O`zbek musiqa folklorlari” –Toshkent. O`bekiston davlat nashriyoti, 1974-yil.